

FARG'ONA VILOYATIDA  
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2025- yil yanvar-fevral*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi*

*Тел. 73-241-97-68*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da




2025- yil 1-mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 7 151 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 149 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 002 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan


**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

## Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (2025-yil yanvar-fevral, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ni tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2025- yilning yanvar-fevral oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 4 832,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 594,6 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 151,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 4 238,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 393,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 116,0 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2025- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>4 832,8</b>	<b>109,5</b>
<b>shaharlar</b>		
<i>Farg'ona</i>	802,5	111,9
Qo'qon	496,2	111,0
Quvasoy	113,3	108,2
Marg'ilon	487,5	110,1
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	193,9	106,9
Qo'shtepa	81,5	107,2
Bag'dod	129,3	107,7
Buvayda	257,9	105,1
Beshariq	148,9	108,0
Quva	201,5	107,5
Uchko'prik	524,5	111,9
Rishton	145,9	107,7
So'x	159,4	104,6
Toshloq	128,3	109,1
O'zbekiston	92,2	107,1
Farg'ona	160,9	105,7
Dang'ara	185,4	106,9
Furqat	38,2	106,0
Yozyovon	83,5	106,7

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025-yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (**111,9 %**), Uchko'prik t (**111,9 %**) va Qo'qon (**111,0%**) shaharida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd so'm

Farg'ona sh.	802,5
Uchko'prik t	524,5
Qoq'on sh	496,2
Marg'ilon sh	487,5
Buvayda	257,9
Quva	201,5
Oltiariq	193,9
Dang'ara	185,4
Farg'ona	160,9
So'x	159,4
Beshariq	148,9
Rishton	145,9
Bag'dod	129,3
Toshloq	128,3
Quvasoy sh	113,3
O'zbekiston	92,2
Yozyovon	83,5
Qo'shtepa	81,5
Furqat	38,2

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 16,6 % bilan 802,5 mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 0,8 % bilan 38,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2025-yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 4 238,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 5,4% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,7 % ni tashkil etdi.




## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 51,8 % ga ko'paydi va 594,6 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,3 % ulushiga to'g'ri keldi.




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x (99,4 %) Farg'ona (99,3 %), Quvasoy (99,0 %) va Toshloq (98,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik t (51,5 %), Qo'qon (18,3 %), va Dang'ara (8,2 %) shaharida kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




**Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda**



2025-yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

1 177,8 ming so'mni (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,3 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona sh (2 468,4 ming so'm), Uchko'prik t (2 147,9 ming so'm) va Marg'ilon (1 906,5 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2025- yil yanvar-fevral), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2025- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>393,1</b>	<b>116,0</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	30,4	111,0
Qo'qon	25,1	64,2
Quvasoy	9,2	126,2
Marg'ilon	38,6	132,5
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	14,4	143,4
Qo'shtepa	10,4	99,7
Bag'dod	45,0	203,3
Buvayda	32,9	94,9
Beshariq	32,8	74,6
Quva	23,4	109,0
Uchko'prik	12,3	95,6
Rishton	30,1	150,6
So'x	13,0	157,8
Toshloq	11,7	173,8
O'zbekiston	17,8	253,4
Farg'ona	15,3	102,3
Dang'ara	6,7	304,0
Furqat	3,0	131,3
Yozyovon	20,8	110,4


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)














## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2025- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 393,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 217,1 mlrd so'mni (116,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 176,0 mlrd so'mni tashkil etdi (115,9 %).












2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 176,1 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (107,9,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>107,9 mlrd so'm</b></p>  <p>49,7 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>14,5 mlrd so'm</b></p>  <p>6,7 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>30,5 mlrd so'm</b></p>  <p>14,0 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>4,9 mlrd so'm</b></p>  <p>2,2 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>9,5 mlrd so'm</b></p>  <p>4,4 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>7,8 mlrd so'm</b></p>  <p>3,6 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>11,8 mlrd so'm</b></p>  <p>5,5 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>11,2 mlrd so'm</b></p>  <p>5,2 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>1,8 mlrd so'm</b></p>  <p>0,8 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>5,9 mlrd so'm</b></p>  <p>2,7 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>3,6 mlrd so'm</b></p>  <p>1,6%</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>7,8 mlrd. so'm</b></p> <p>3,6 %</p>

2025-yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 176,0 mlrd so'mni tashkil etdi. bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 145,1 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 27,9 mlrd so'mni, otlar – 1,9 mlrd so'mni, parrandalar – 1,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</b></p> <p><b>82,1 mlrd so'm</b></p>  <p>46,6 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>31,1 mlrd so'm</b></p>  <p>17,6%</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</b></p> <p><b>32,0 mlrd so'm</b></p>  <p>18,2 %</p>
<p><b>Qo'ylar</b></p> <p><b>27,3 mlrd so'm</b></p>  <p>15,5 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>1,9 mlrd so'm</b></p>  <p>1,1 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>0,6 mlrd so'm</b></p>  <p>0,4 %</p>
<p><b>Kurka, o'rdak, g'oz</b></p> <p><b>0,4 mlrd so'm</b></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>0,5 mlrd so'm</b></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,2 mlrd so'm</b></p>  <p>0,1 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,1 mlrd so'm</b></p>  <p>0,01%</p>		

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 834 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 832 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd so'm	2025- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2 729,6</b>	<b>111,5</b>
shaharlar		
Farg'ona	44,9	110,0
Qo'qon	6,9	124,0
Quvasoy	1,0	120,1
Marg'ilon	20,9	120,4
tumanlar		
Oltiariq	6,7	114,6
Qo'shtepa	4,7	114,3
Bag'dod	1,0	124,3
Buvayda	2,6	113,9
Beshariq	9,5	113,1
Quva	5,3	118,0
Uchko'prik	9,4	115,6
Rishton	3,4	116,9
So'x	1,3	128,7
Toshloq	1,7	119,7
O'zbekiston	1,1	129,1
Farg'ona	4,6	118,4
Dang'ara	1,6	129,8
Furqat	1,8	125,0
Yozyovon	2,8	112,7

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 729,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,4 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>733,1</b>	<b>100,0</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	222,2	30,3
Qo'qon	367,0	50,1
Quvasoy	2,1	0,3
Marg'ilon	52,8	7,2
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	5,2	0,7
Qo'shtepa	0,9	0,1
Bag'dod	1,7	0,2
Buvayda	2,3	0,3
Beshariq	0,7	0,1
Quva	2,7	0,4
Uchko'prik	18,8	2,6
Rishton	2,0	0,3
So'x	3,5	0,5
Toshloq	13,2	1,8
O'zbekiston	3,0	0,4
Farg'ona	1,0	0,1
Dang'ara	28,7	3,9
Furqat	4,1	0,6
Yozyovon	1,3	0,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (367,0 mlrd so'm), Farg'ona (222,2 mlrd so'm) va Marg'ilon (52,8 mlrd so'm) shahalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2025- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 733,1 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 320,3 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 113,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 412,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 1,9 m ko'paydi) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda






**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.




Viloyat bo‘yicha 2025-yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 679,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining 3 503,9 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,2 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

	Hajmi, mlrd so'm	2025- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 679,9</b>	<b>109,9</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	769,9	107,6
Qo'qon	683,0	114,6
Quvasoy	91,1	94,4
Marg'ilon	750,6	115,9
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	49,3	110,2
Qo'shtepa	26,7	108,0
Bag'dod	22,0	97,6
Buvayda	98,0	112,1
Beshariq	39,4	107,3
Quva	18,3	83,3
Uchko'prik	226,8	104,4
Rishton	10,6	90,4
So'x	3,7	95,7
Toshloq	235,9	106,5
O'zbekiston	44,6	100,7
Farg'ona	82,4	109,7
Dang'ara	75,2	105,7
Furqat	16,9	90,8
Yozyovon	9,9	85,6

\* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 018 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 993 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Oltiariq t (20,0 m), Rishton(2,7 m ) va Uchko'prik (156,8 %) tumanida kuzatildi.